

## BO'LAKLI O'ZGARMAS ARGUMENTLI DIFFERENSIAL TENGLAMANING YECHIMLARI HAQIDA

Mo'minov Muxiddin Eshqobilovich, f.-m.f.d., SamDU  
Abduqodirov Vohidjon Ulug'bek o'g'li, JDPI magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lakli doimiy argumentli diffuziya teng-lamasi o'rganildi. Qaralayotgan differensial tenglamalarning yechimini mavjudlik shartlari va topish masalasi keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** differensial tenglama, bo'lakli doimiy argumentli, davriy yechim, metod, xususiy hosila, uzluksiz, Fur'e qatori.

**Annotation:** In this paper, the diffusion equation with a constant argument is studied. The conditions of existence and the problem of finding the solution of the differential equations under consideration are given.

**Key words:** differential equation, partial constant argument, periodic solution, method, special product, continuous, Fourier series.

Bo'lakli o'zgarmas argumentli differensial tenglamalar gibrid tizimli modellashtirish masalalarida, biologik tizimlarni o'rganishda paydo bo'ladi [1-4].

Bo'lakli o'zgarmas argumentli xususiy hosilali differensial tenglamalarga keluvchi amaliy masallar [5, 6] ishlarda keltirib o'tilgan.

Ushbu maqolada, biz bo'lakli konstanta argumentli differensial tenglamaning  $N$  – davriy yechimini topish metodini keltiramiz

$$u_t'(x, t) = a^2 u_{xx}''(x, t) + bu(x, [t]), 0 < x < 1, t > 0, \quad (1)$$

$$u(0; t) = u(1; t) = 0, \quad (2)$$

$$u(x; 0) = v(x) = 0, \quad (3)$$

bu yerda  $v(x)$  funksiya  $[0, 1]$  intervalda uzluksiz.

(1-3) tenglama yechimining ta'rifini keltiramiz.

**Ta'rif.** Agar  $u(x, t)$  funksiya quyidagi shartlarni qanoatlantirsa, unga (1-3) masalaning yechimi deyiladi,:

(i)  $u(x, t)$  funksiya  $\Omega$  to'plamda uzluksiz,  $\Omega = [0, 1] \times \mathbb{R}_+, \mathbb{R}_+ = [0, \infty)$ ;

(ii)  $u'_t$  va  $u''_{xx}$  xususiy hosilalar  $(x;[t]) \in \Omega$  nuqtalardan tashqari  $\Omega$  to'plamda mavjud va uzluksiz, hamda  $(x;[t]) \in \Omega$  nuqtalarda esa faqat bir tomonlama hosilalar mavjud;

(iii)  $u(x, t)$  funksiya  $(x;[t]) \in \Omega$  nuqtalardan tashqari  $\Omega$  da (1-3) tenglamalarni qanoatlantiradi.

(1) tenglama yechimini quyidagi formal qator ko'rinishda izlaymiz:

$$u(x, t) = \sum_{j=1}^{\infty} T_j(t) \sin j\pi x. \quad (4)$$

Bu yerda  $T_j(t)$  funksiya ushbu

$$T'_j(t) + a^2 \pi^2 j^2 T_j(t) + b T_j([t]) = 0, \quad t > 0, \quad j = 1, 2, \dots. \quad (5)$$

$$v_j = T_j(0) \quad (6)$$

tenglamaning yechimi,  $v_j - v(x)$  funksiya Fur'ye qatori koeffitsientlari

$$v(x) = \sum_{j=1}^{\infty} v_j \sin j\pi x, \quad v_j = 2 \int_0^1 v(x) \sin j\pi x dx$$

**Teorema 1.** Agar (5-6) tenglama yechimga ega bo'lsa, (1-3) masala yagona yechimga ega va  $u$  (4) ko'rinishda aniqlanadi.

### References

- [1] Hale, JK, V. Lunel, SM: *Introduction to Functional Differential Equations*. Springer, New York, 1993.
- [2] Hino Y., Naito T., Minh N.V., Shin J.S.: *Almost Periodic Solutions of Differential Equations in Banach Spaces*. Stability and Control: Theory, Method and Applications, vol. 15. Taylor & Francis, London, 2002.
- [3] K. L. Cooke and J. Wiener, *A survey of differential equations with piecewise continuous arguments*, Delay Differential Equations and Dynamical Systems, vol. 1475 (1991), 115, Springer, Berlin, Germany.
- [4] Wiener, J., *Generalized Solutions of Functional Differential Equations*, World Scientific, Singapore, 1993.
- [5] Wiener, J., *Boundary-value problems for partial differential equations with piecewise constant delay*, Internat. J. Math. and Math. Sci. 14 (1991), 301-321.
- [6] Wiener J., Debnath, L. *Boundary value problems for the diffusion equation with piecewise continuous time delay*, Internat. J. Math. and Math. Sci. 20(1) (1997), 187-195.